

CHET TILINI O'RGANISH ZAMON TALABI

*Rustamova Gulbahor To'htasinovna*

*Andijon shahar 3-sonli kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Xozirgi kunda talim muassalalarida oqituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanib mashulotlarni o'tmoqdalar. Tilni o'rganish bugungi kunda o'qituvchidan ko'ra aynan til o'rganuvchining o'ziga xam ko'proq bog'liqdir.

Maqolada muallif tomonidan ingliz tilini samarali o'rganishning bir necha qoidalari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Til, chet tillari, ingliz tili, oqituvchilar, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim texnologiyalari, tilni o'rganish.

**KIRISH**

Bugun hayotni chet tillarisiz faraz qilib bo'lmaydi. Globalizatsiya jarayoni tezlashgan sari chet tilini o'rganish zamon talabi bo'lib boryapti. Bugun har qanday sohada yaxshi bir mutaxassis bo'lish uchun ingliz tilini bilish oddiy talabga aylanib qoldi. Biror bir chet tilini o'rganayotganda o'zimga bergan savolim quyidagicha bo'lib kelgan: "Chet tilini qanday qilib tez o'rgansa bo'ladi? Chet tilida qanday qilib oson gapirish mumkin?" "Tilni tez o'rganish, unda tezda gapira olish siri nimada? Nima uchun to'rt yil davomida bosh ko'tarmasdan bitta chet tilini o'rganayotgan talabalarning aksar qismi tilda uch-to'rt og'iz bexato gap aytolmayotganda, tilga aloqasi bo'lmagan sohalarda o'qiyotgan talabalar haftada 3-4 soat til o'rganishga vaqt ajratib tilni ajoyib tarzda o'zlashtiryapti?" Uzoq yillar davomidagi izlanishlarim natijasida shuni tushinib yetdimki, muammoning sababi til o'rganishga bo'lgan yondashuvdadir. Ko'plab xatolarni tushinib yetganligim sababli bugungi kunga kelib oltinchi tilni o'rganyapman va bu har qachongidanda menga osonroq tuyilyapti. Chet tilini o'rganish bu biz xayolimizga sig'dirganchalik qiyin emasligini kundan-kunga yaxshiroq tushinib yetyapman. Bu uchun muhimi chet tilini o'rganishda eng oson yo'lni tanlab bilishdir. Xosirgi kunda talim muassalalarida oqituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanib mashulotlarni o'tmoqdalar. Tilni o'rganish bugungi kunda o'qituvchidan ko'ra aynan til o'rganuvchining o'ziga xam ko'proq bog'liqdir.

**Kuchli ishtiyoq**

Biror tilni o'rganish uchun eng muximi hayotdagi har bir sohada bo'lganidek motivatsiyadir (ishtiyoq). O'zizga har doim bu tilni nima uchun o'rganishim kerak degan savolni bering va har qanday qiynalgan vaziyatingizda yoki ikkilanganingizda tilni o'rganishdan maqsadingizni eslang. Eng muximi bu tilni o'rgana olishingizda, hammasi sodda, unchalik qiyin emasligi, til o'rganishda boshqalardan kam joyingiz yo'q ekanligini anglab yetishdir. Tilni o'rganishda o'zingizga bo'lgan ishonchni orttira

olganingizdan keyin tilni o'rganishga kirishsangiz bo'ladi.

### **Har kunlik mashg'ulot**

Hozirgi kunda ko'plab til kurslari haftada bir yoki ikki kun ikki soatdan dars tashkillashtiradi va kundalik hayot ishlari bilan band bo'lgan til o'rganuvchi kishi boshqa kunlarda tilga vaqt ajratolmaydi va odatda keyingi darsgacha oldingi darsdagi mavzularni esdan chiqaradi va bu tilni o'rganish jarayonini ancha sekinlashtiradi. Shu uchun ham xoxlagan bir chet tilini o'rganayotganda, uni har kuni o'rganish kerak va shunda har kuni takrorlanish natijasida tilni o'rganish jarayoni ancha tezlashadi. Shu uchun ham biror tilni yaxshi o'zlashtirmoqchi bo'lsayiz, o'zingizga har kunlik majburiyat yuklang; "Men har kuni, har qanday vaziyatda ham ingliz tilini o'rganishga yarim soat yoki bir soat vaqt ajrataman!". Shundagina tilni eslab qolish imkoniyatingiz keskin oshib boradi.

### **Qobiliyatlar turi**

Tilshunos olimlar tilni o'rganishni to'rtta katta yo'nalishga bo'lishgan:

- O'qish - bu chet tilida o'qilgan matnni tushinish qobiliyati;
- Eshitish -bu chet tilida eshitilgan matnni tushinish;
- Yozish - chet tilida yozish qobiliyati;

- Gapirish - o'z fikringizda chet tilida ifoda eta olish qobiliyati. Ushbu to'rt narsaga yetishish uchun uchta eng kerakli narsani o'zlashtirish muximdir: gramatika, lug'at boyligi va talaffuz. Demak, ushbu uch narsani o'zlashtirmasdan turib chet tilini o'rganish ancha qiyinlashadi.

### **Qaysi vositalar qulay?**

Endi, ushbu uch narsani qaysi vositalar asosida tez o'rganish y'ollarini taxlil qilamiz:

**1. Grammatika.** Odatda chet tilini o'rganayotgan ko'plab o'quvchilarga gramatika haqida gapirsa ensasi qotadi. Xoxlasakda, xoxlamasakda tilni o'rganishda eng murakkab qismi aynan gramatikadadir. Shu uchun ham gramatikani o'rganish juda muximdir. Qo'rqib ketmang, buni ham juda oson tarzda o'rganish mumkin. Bizda gramatika darsi deganda hatto o'sha tilda gapiruvchi millatlar ham ishlatmaydigan minglab qoidalar o'rganib chiqiladi, yod olinadi. Bizning ta'lim tizimidagi eng katta muammo ham aynan shu yod olishlardadir. O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti fransuz filologiyasining ko'plab talabalri o'qishni bitirganda fransuz tili gramatikasi va fonetikasidagi minglab qoidalarni yoddan biladilar, lekin tilda bexato murakkabroq bir gap tuzib bera olmaydilar. Qoida yodlash degan narsalarni umuman esdan chiqaring va gramatikada faqat kerakligina narsani o'rganing; yodlangan, lekin amalda tilni gapirganda ishlatilmaydigan qoida xuddi mashina sotib olasizu, lekin garajga tiqib qo'yib, ishga uzoq masofada piyoda qatnaysiz, bu ham aynan shunga o'xshash bir holatdir. Masalan, ingliz ili darslari davomida 80dan ortiq noto'g'ri tuslanuvchi fe'lni yod olganimni eslab bilaman. Lekin, shulardan qo'llansa bor yo'g'i

30tasigina qo'llaniladi. Masalan, "sweep" ya'ni "supurmoq" fe'li. Shu noto'g'ri tuslanuvchi fe'lni men biror marta ingliz tilida gapirganda yoki yozganda ishlatganimni eslolmiyman. Har qanday tilni o'rganishda eng sodda yo'ldan borish kerak. Shu uchun ham e'tibor bering: Ingliz yoki fransuz tilida sodda gap nimalardan iborat? Ega+Kesim+To'ldiruvchi. Demak, gapning shu uch qismida ishlatiladigan gramatikani o'rganish tilni o'rganish uchun yetarlidir. Har qanday tilni o'rganishdan maqsad shu tilda gapira olishdir. Shu uchun ham aynan kundalik gapirishga kerakli gramatik mavzularnigina o'rganing. Fransuz tilini o'rganayotganda, dastlab 12 zamonni o'rganib chiqqandik, lekin 90 foiz holatda hozirgi, o'tgan va kelgusi zamongina qo'llaniladi. Shu uchun ham uchta kerakli zamonni o'rganishning o'zi yetarli. Aynan, shu tomondan kelib chiqqanda, gramatikani o'ragnish siz uchun taxminan 80 foizga osonlashadi. Gramatikani o'rganganda tilga eng kerakli mavzularni tanlab olgandan so'ng ularni o'rganib chiqishni haftalarga taqsimlab oling. Har bir mavzuga bir haftadan vaqt ajrating va hafta davomida bir mavzuni chuqurroq o'rganib boring. Natijada, uch oyda chet tilida gapira olish uchun yetarli darajada gramatik asosga ega bo'lasiz va ko'rganingizdek bu siz o'ylaganchalik ham murakkab narsa emas.

## **2. Lug'at o'rganish.**

Bu yerda ham o'zingizni majburlab yillar davomida so'z yodlash bu eng noto'g'ri metoddir. Maktab yillarimda har kuni o'zimga 10tadan so'z yodlashni vazifa qilib olgandim. Muammo shunda ediki, fransuz tilida gapirganda ushbu so'zlarni qo'llay olmasdim, ularning ko'pchiligi kundalik hayotda umuman ishlatilmas va tezda unut bo'lib ketardi. Shunda tushindimki, bu uslub tilda so'z boyligini orttirishda juda noto'g'ridir. Vaqt o'tgan sari tajribadan tushundimki, so'z yodlashning eng oson yo'li o'rganilayotgan chet tilida ko'proq o'qishdir. Ingliz tilini o'rganayotgan bo'lsangiz, o'ziz uchun zerikarli, hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan matnlarni o'qigandan ko'ra internetda o'ziz qiziqqan sohadagi matnlarni yoki kitob va jurnallarni o'qing. Hamma tushunmagan so'zlarga to'xtamasdan, faqatgina gapning manosini anglab yetishga kerakli notanish so'zlarni uchratganingizda lug'atdan yoki Google Translate kabi xizmatlardan tarjimasini toping va uni daftarga qayt etib qo'ying. Iloji bo'lsa har kuni 3-4 bet o'rganilayotgan chet tilida biror bir matn o'qishga harakat qiling va har safar notanish so'zni tarjimasini topib yozib keting. Bu yozganlaringizni yodlashga hech qachon kirishmang, men yozganlarimni hatto qaytib o'qib ham ko'rmiyman odatda. Bizning yod olish qobiliyatimiz shunday shakllanganki, agar biz biror so'zni ko'rib, shunchaki tarjima qilib ketsak, u esimizda qolmaydi, lekin biror joyda qayd etib qo'ysak, miya bu narsaning muhimligiga urg'u beradi va so'z yodimizda qolib boshlaydi. Natijada har xil matnlarda 5-6 marta uchragan bir so'z unutilmas darajada yod bo'ladi va shu bilan birga so'zning qaysi kontekstda qaysi manoda qo'llanilishini ham bilib olamiz. Chet tilida har kuni matn o'qiganimizning yana bir foydasi shundaki, o'rgangan gramatik mavzularimizni matnda ishlatilganligini ko'rib, gramatik

asosimizni yanada mustahkamlab boramiz. Lug'at yodlashdagi ikkinchi muvaffaqiyatli uslubini amerikalik mashhur olim, "To'rt soatlik ish haftasi" kitobining muallifi Tim Ferriss tushuntirgan. Perato nazariya bo'yicha biz hayotimizda kerakli ishlarga faqat vaqtimizning 20 foizini ishlatamiz, lekin erishadigan natijalarimizning 80 foizini aynan shu 20 foizgina mehnat beradi. Tim Ferriss yettita chet tilida bimalol gapira oladi. U til o'rganishni sirini quyidagicha izohlaydi: "Xoxlagan bir chet tilini 90 foizini tushinish uchun 3 oy yetarli, lekin 95 foiz tushinish uchun 3 yil kerak". Demak, tilni mukammal o'rganish juda uzoq mehnat talab qiladi. Demak, Perato nazariyasidan kelib chiqib avvalo 80 foiz natijani beradigan 20 foizga shukur qilish kerak. Buni endi sodda tilda tushintiraman. Lug'at o'rganganda tilda aynan eng ko'p ishlatiladigan so'zlarnigina o'rganish kerak. Statistika ma'lumotlariga ko'ra ingliz tilida eng ko'p ishlatiladigan 200ta so'z ingliz tilidagi yozishmalarni teng yarmini tashkil etar ekan. Shu uchun ham lug'at yodlaganda tilda eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni yod olishni o'zi yetadi. Keyin, unga faqatgina o'zingizga kerakli sohadagi so'zlarni qo'shib o'rganishgina yetarli. Mana bu manzilda siz o'rganayotgan chet tilida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar ro'yxatini ko'chirib olishingiz mumkin. Demak, lug'at o'rganga prioritetni aniqlab, aynan kerakli narsalarni o'zini o'rganishgina yetarli. Shunda ham so'zni xalq tilida aytganda "qoriga o'xshab yodlamasdan", ro'yxatdagi so'zlarning har biri ishtirokida beshtadan gap yozishga harakat qiling. Har safar ular ishtirokida gap tuzganingizda so'zlar texnik tarzda yod bo'la boshlaydi va lug'at boyligingiz boyib boradi. Demak, chet tilida gapirilganda 90 foiz holatda 1000 ga yaqin ko'p qo'llanuvchi so'z ishlatiladi xolos, qolganini bo'lsa har kim o'z sohasiga moslab o'rgansagina yetarlidir. Masalan, tibbiyot xodimi ushbu 1000ta so'z va unga qo'shib tibbiyot sohasiga bog'liq 1000 ga yaqin so'z o'rgansa hech qanday qiyinchiliklarsiz o'z sohasida ingliz tilida erkin muloqotda bo'la oladi.

### **3. Talaffuz.**

Har bir til o'zining talffuziga ega. Tilshunos olimlarning fikricha jamiki 150 dan ortiq tovush bo'lib, har bir til odatda o'rtacha 30ta tovushni ishlatadi. Natijada tillarning talaffuzida juda katta farq kelib chiqadi. Masalan fransuz tilidagi burun tovushlari bizning tilda umuman yo'q. O'zbek va fransuz tillaridan farqli ravishda rus tilida "o" tovushi yo'q. Odatda tilni o'qishni o'rgangandan so'ng, talaffuzni yaxshilashning eng oson uslubi bu chet tilida iloji boricha ko'proq tinglashdir. Shu tilda kino ko'rish kerak, qo'shiq va har xil radio matnlarni eshitish kerak. Yandex tizimida izlasangiz birgina ingliz tilining o'zida agar minglab bo'lmasa yuzlab audio kurslarni topasiz. Ularni player yoki telefoningizda eshitib yurish sizning ham tilni tushinishingizni osonlashtirib boradi, ham talaffuzingiz yaxshilanishda davom etadi. Chet tilida qo'shiq eshitganda undan yana bir boshqa maqsadda ham foydalansa bo'ladi. Yaxshi ko'rgan qo'shig'ingizni matnini chet tilida toping va uni o'z tilingizga lug'at yordamida tarjima qiling. Natijada, nafaqat qo'shiqning ma'nosini to'liq tushunib yetasiz, shu bilan birga

lug'at boyligingizni boyitib olasiz, bu so'zlar sevimli qo'shig'ingiz bilan bir umrga xotiraga muxrlanadi. Ushbu uch narsadan tashqari tilni o'rganishda muhim narsalardan biri til muhitiga kirib borishdir. Iloji boricha o'rganilayotgan chet tilidagi materiallarni ko'proq ishlatishga harakat qilsayiz, asta-sekinlik bilan til darajangiz yaxshilanib boradi. Masalan oddiy telefoningizning dasturlaridan tortib, kompyuteringizning operatsion sistemasigacha hammasini chet tilida qo'yib oling. Internetdan olinadigan ma'lumotni faqatgina chet tilida oling va TV ko'rganda yoki radio eshitganda iloji boricha chet tilida eshitishga harakat qiling. Facebook, Vkontakte kabi ishlatiladigan ijtimoiy tarmoqlarni, ko'plab yangilik saytlarini ingliz tili versiyasida ishlating. Aynan chet tilidagi forum va chatlarga yoziling va ularda chet tilida faol ishtirok etishga harakat qiling. Men yaxshi eslab bilaman, bundan bir necha yil oldin chet tilida filmlarni topib ko'rish ancha murakkab narsa edi. So'nggi yillardagi texnika taraqqiyoti evaziga bu unaqa katta muammo bo'lmay qoldi. Yaqinda, fransuz filmlarining rus tiliga tarjimasi yaxshi chiqmasligi, ularning mentalitetini rus tilida izohlab bo'lmasligi uchun fransuz tilida biror bir fransuz komediyasini ko'rgim keldi. Toshkentdagi xoxlagan disk sotuvchi do'konlarda bugungi kunda sifatli faqatgina bir filmdan iborat disklar sotiladi va shu disklardagi filmning audiosi kamida ikki xil tilda bo'ladi va bu sizga bir vaqtning o'zida rus tilidagi subtitrlar bilan filmlarni original tilida ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga bugungi kunda milliy internet operatorlarining deyarli hammasi ichki Tas-Ix manbaalariga bepul va cheksiz internet taqdim qiladi. Tas-Ix tizimida juda ko'plab Torrent Tracker lar bo'lib, ularda chet tilidagi filmlarni sifatli va ikki-uch xil tilda yozilgan bepul versiyasini bimalol ko'chirib olishingiz mumkin. Chet tilini o'rganishda takrorlashning ahamiyatini ham esdan chiqarmaslik kerak. Takrorlash bilimning onasi deganlaridek, har hafta o'rgangan gramatik mavzungizni ikki hafta o'tib bir kuni takrorlash uni yanada msutahkamlashga, xotirada yanayam yaxshi saqlashga xizmat qilishi mumkin.

### **Kimlar bilan chet tilida gaplashaman?**

Tabiiyki shunday savol bo'lishi mumkin: "Xop", siz aytgan narsalarni hammasini qildim. Lekin, tilni gapirish uchun nima qilishim kerak? Kim bilan chet tilida gaplashsam bo'ladi? Og'zaki nutqimni qanday qilib o'stirsam bo'ladi?" Buning javobi borib bugungi ijtimoiy tarmoqlarga taqaladi. Facebook tarmog'ida bugun tili o'rganilayotgan mamlakatdan do'st orttirish juda oson narsa bo'lib qoldi. Ular bilan yozishib, keyinchalik hatto skype akkauntlarini ham alishish imkoni bor. Shu bilan birga forumlar va turli xil chatlar chet tilida muloqot qilish uchun ideal joyga aylanishdi. Shuningdek, Toshkentda elchixonalar tomonidan ochilgan madaniyat markazlari, institutlarni ham esdan chiqarmaslik kerak. U yerlarda odatda tez-tez madaniy kechalar va debatlar tashkillashtiriladi, bu sizga chet tilida gapirish imkonini beradi. Faqat ushbu tadbirlarga borib faol ishtirok etishning o'zi yetarli. Bundan bir necha yil oldin Toshkentdagi Fransuz madaniyat markazidagi tadbirlarda juda faol

qatnashardim. Ushbu madaniyat markazida har juma kunlari "Cafe Hugo" nomli davra suhbat bo'lib o'tardi. Bir piyola choy atrofida fransuz tilida fransuzlar va o'zbek yoshlari turli xil mavzuda suhbat qurishar, fikr almashishardi. Shunda chet tilini biladigan ko'plab tengdoshlarim ham xato qilishdan qo'rqib, gapirmasdan jim o'tirishni, boshqalarni tinglashni maqul ko'rishardi. Biz o'zbeklar mentalitetimiz shunaqa, uyatchan xalqmiz, bizda hamma xato qilishdan qo'rqadi. Lekin, o'rganishning eng oson yo'li bu xato qilishda ekanligini psixologlar bir necha marotaba isbot qilishgan. Shu uchun ham xato qilishdan qo'rqmasdan, chet tilida gapirishga harakat qilish kerak va shu orqaligini xato qilish natijasida o'z kamchiliklaringizni tushinib borasiz va maqsadni keyin aynan shu kamchiliklarni to'g'rilashga qaratasiz. Muximi, xatodan uyalmasdan chet tilida gapirish. Men ham o'tgan yillarda chet tilida gapirish uchun bir necha marta "qovun tushurganman", hatto butun boshli gruppada oldida kulguga qolgan davrlar bo'lgan. Lekin, bilasizmi, o'sha xatolarni qilmaganimda, xatolarimni bilmaganimda bugun tilni shu darajada o'rgana olmasdim. O'zingiz bir o'ylab ko'ring, siz chet elliklar bilan tashkillashtirilayotgan ma'lum bir tadbir ishtirokchisiz, siz bilan suhbatda bo'lgan chet ellik qiynalib, xatolar bilan bo'lsada sizning tilingizda gapiryapti. Shu holatda, siz uning xatolari uchun unga past nazar bilan qaramaysiz, aksincha o'zingizni tilingizni o'rganayotganligi uchun, unga nisbatan hurmatingiz ortadi, xursand bo'lasiz va uni xatolarini tushinasiz. Demak, chet elliklar bilan ularning tilida muloqot qilish davomida, ular sizning xato qilishingizni tabiiy qabul qilishadi va ularning tilini o'rganayotganligingizdan hatto xursand ham bo'lishadi. Shu uchun ham xato qilishdan qo'rqmang.

### **So'zlashgichlar yordami**

Tilni o'rganishni osonlashtirishning yana bir yo'li, bu chet tilidagi tayyor so'zlashgich yoki gidlardadir. Bugungi kunda hatto oddiy smartfoningizda ham yuzlab chet tilida turli xil holatlarda ishlatiladigan tayyor gaplardan iborat gid so'zlashgich (razgovornik) lar bor. Aynan shu gidlarda siz tilda ishlatiladigan tayyor gaplarni yod olishingiz mumkin. Bu gaplar sizni chet tilida so'zlashishingizni ancha osonlashtiradi. Shu razgovorniklarda o'rganilgan har bir gapdagi birgina so'zni o'zgartirib uni turli xil holatlarda, turli xil ma'nolarda ishlatishingiz mumkin. Natijada turli xil sayohatlar davomida chet tilida bexato so'zlashish imkoniyati paydo bo'ladi. O'ylaymanki, chet tilini qanday qilib oson o'rganish mumkinligini imkoni darajasida sizga tushintirdim. Bu meni ushbu sohadagi bir necha yillik tajribamdan kelib chiqqan xulosalardir. Bu narsa shuni anglatadiki, bugungi kunda 3 yoki 6 oyda chet tilini o'rgatishni vada berayotgan o'quv markazlari sizni aldamayapti, balki to'g'ri tanlangan metodika evaziga bu haqiqatdir. Chet tilini o'rganish bo'lsa o'quv markazlari va o'qituvchilardan ko'ra bugun faqat va faqat sizga bog'liqdir. Texnika taraqqiyoti evaziga, bugun ishonch, ishtiyoq va to'g'ri tanlangan metodikaning o'zi chet tillarini o'rganish uchun yetarlidir. Chet tilini o'rganishni osonlashtirishi mumkin bo'lgan

narsalar haqida kimda yana qandaydir fikr bo'lsa ushbu maqolani to'ldirib borishi mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1.Пассов Э. И. Общительный метод обучения иностранного разговора. – Москва., 1985.

2.Атаджанова Б.Т. Проблемы изучения лексики русского языка в национальных группах // Достижения науки и образования, 2018. № 8 (30).

[Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-izucheniya-leksiki-russkogo-yazyka-vnatsionalnyh-grupph/> (дата обращения: 23.02.2021).

3.Никишина И. В. Педагогические инновационные технологии. Учитель. Волгоград, 2006.

4.Рыбченкова Л. М., Капинос В. И., Цыбулько И. П. О ЕГЭ и мониторинге по иностранному языку// иностранный язык . 2004. -№ 3.-с.10.

5.Современные технологии обучения. Методическое пособие по использованию интерактивных методов в обучении / Под ред. Г.В.Борисовой.,

6.Т.Ю. Аветовой и Л.И. Косовой. – СПб.: Изд-во «Полиграф-С», 2002. -79 с.: ил. Технологические подходы и интерактивные методы. Программа Обучение Здоровью. М. 2005. -95 с.